


**MAVZU: GIJJAGA QARSHI DORI VOSITALAR — TURLARI,
QO'LLANILISHI, QARSHI KO'RSATMALAR VA NOJO'YA TA'SIRLARI**



Davronova Sayyoraxon Isroilovna

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Farmakologiya va retseptura fani o'qituvchisi*

Lyamblioz yoxud gijjalar — odamda juda ko'p muammolarni chaqirishi mumkin bo'lgan keng tarqalgan infeksiyon kasallik. Ko'pincha, ushbu tuban mikroblar bolalar organizmini zararlaydi, lekin kattalarda ham aniqlanishi kamyob holat emas. Gijjaga qarshi dorilar esa ularni yengishda ajralmas o'rin tutadi.



Gijjalarni davolash qiyin emas, ishning qiyinligi faqat buning uchun to'g'ri dori tanlashda yotadi. Ya'ni, gijjalarning u yoki bu shaklini davolashning eng samarali usullarini tanlay bilish. Tibbiyot bu parazitoz muammosi bilan uzoq vaqtdan buyon

shug'ullanmoqda, biroq hozirgacha gijjaga qarshi universal vositalar kashf etilmagan. Shu tufayli, terapiya har bir bemorga individual yondashilgan holda standart sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

GIJJANI DAVOLASH TAMOYILLARI

Lyamblioz o'tkir klinik shaklda rivojlanishi, shuningdek surunkali shaklga o'tishi mumkin. Birinchi holda, kasallik alomatlari aniq namoyon bo'ladi va gijja mavjudligiga tashxis qo'yish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ikkinchi holda, odamda deyarli hech qanday belgilar kuzatilmaydi.

Har ikki holatda, kattalar va bolalarda ham gijjani davolash shart. Ammo, afsuski, barcha bemorlar uchun yagona yondashuv yo'q va buning uchun ba'zi bir sabablar mavjud:

- Yuqori darajada toksikligi tufayli antiparazitar dorilar barcha uchun har doim ham mos kelavermaydi.



- Infektsion kasalliklarni davolashda ishlatiladigan ko'plab preparatlar bir qator qarshi ko'rsatmalarga ega bo'ladi.
- Parazitologlar ilgari gijjaga qarshi ishlatilgan ayrim preparatlar ta'siriga qarshi bakteriyalarda chidamlilik rivojlanganini aniqlashdi.
- Davolanishdan so'ng bemorda doimiy immunitet rivojlanmaydi, shuning uchun qayta infeksiyalanish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday holda, lyambliozni davolash bazi parazitlarda antibiotikka qarshi chidamlilik mavjudligi tufayli butunlay boshqacha bo'ladi.
- To'liq tiklanish ko'rsatkichlari 100% ni tashkil qilmaydi, shuning uchun lyambliozning surunkali shaklini retsediv holatidan ajratish juda qiyin. Bunday vaziyatda noto'g'ri davolanish belgilanishi mumkin.

- Lyambliozda ko'pincha unga hamrohlik qiluvchi infeksiya kuzatiladi va ular bu tubanlar bilan to'liq simbiozda yashashi mumkin (masalan *helicobacter pylori* yoki *candida zamburug'lari*). Bu holda terapiya tegishli preparatlar bilan to'ldiriladi.

Gijjalarni darhol eradikatsiya qilish qoida tariqasida kasallikning o'tkir shakllarida belgilanadi. Boshqa hollarda terapiya standart uslubga muvofiq amalga oshiriladi.

KLASSIK DAVOLASH SXEMASIGA MUVOFIQ PREPARATLARNI QO'LLASH

Kattalarda gijjani qanday davolash kerak? Farmatsevtika sanoati gijjaga qarshi ko'plab dori vositalari chiqarmoqda, ular ushbu parazit bilan ozmi-ko'pmi kurashishga qodir. Ammo shifokorlar gijjalarga qarshi dorilarni birdan qo'llashni tavsiya etishmaydi, chunki organizmning enterotoksinlar bilan zaharlanishi endotoksinlar (hujayralar nobud bo'lganda chiqariladigan o'lik zahari) va ko'pincha zaharli bo'ladigan shaxsan preparatning ta'siri bilan og'irlashishi mumkin.

Shu sababli, gijjalarga qarshi terapiyani shifokor uch bosqichda belgilaydi:

1. Tayyorgarlik davri.
2. Gijjaga qarshi dori vositalarining medikamentoz ta'siri.
3. Tiklanish davri.

TAYYORGARLIK DAVRI

Asosiy davolanishga tayyorgarlik ko'rish lyamblioz alomatlariga bog'liq. Ushbu davr mobaynida bemorga gijjalar yashashi uchun salbiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan parhez buyuriladi.

Lyambliozda tavsiya etiladigan ovqatlanish tartibi:

- Gijjalar uchun asosiy oziqa bo'lgan uglevodlar iste'molini kamaytirish.
 - Oqsilga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishni ko'paytirish — u parazitlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning o'sishini sekinlashtiradi.
 - Oshqozon-ichak traktida ichimliklar va rezavorlar yordamida nordon muhit yaratish — bu gijjalarga nobud qiluvchi ta'sir qiladi.
 - Safro ham bu parazitlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'lib-bo'lib ovqatlanish gijjalar mavjud joyga safroning yetib borishini oshiradi.
 - Taomnomaga ko'proq kletchatka kiritish kerak, masalan bug'doy kepagi.
- Ular istalmagan mehmonlarni ichaklardan chiqarishga yordam beradi.

Tavsiya etilgan va taqiqlangan ovqatlar uchun aniqroq ko'rsatmalar Pevzner bo'yicha №5 parhezda belgilagan, faqat undan laktoza va uglevod saqlovchi mahsulotlarni chiqarib tashlash kerak.

Tayyorgarlik ko'rish davrida dori vositalaridan ko'pincha quyidagilar buyuriladi:

- Enterosorbentlar. Masalan, smelta toksinlarni o'ziga biriktirib, ularni organizmdan chiqarib yuboradi. U foydali bakteriyalar o'sishi uchun sharoitlarni yaxshilaydi, ichak shilliq qavatini bakteriyalarning zararli ta'siridan himoya qiladi va ularni tanadan evakuatsiya qilishga yordam beradi. Har qanday yoshdagi bemorlarga tayinlanishi mumkin.



- Allergik reaksiyalarni kamaytirish uchun zodak, seterizin va setrin buyuriladi.
- Safro haydash funksiyalari prokinetik (motilium, dompiron) va xolelistokinetiklar (magniy sulfati, ksilit, sorbit) yordamida qayta tiklanadi.
- Oddi sfinkter disfunktsiyasi selektiv (odeston) yoki noselektiv (dyuspatalin, no-shpa) spazmolitiklar bilan davolanadi. Bunday holda, safro haydovchi preparatlar bekor qilinadi.
- Hazm qilish funksiyasini tiklash uchun fermentlar buyuriladi (festal, mezim, enzistal, kreon).
- Lyamblioz ta'siri ostida jigar patologiyasi aniqlanganda gepatoprotektorlar belgilanadi (gepral, karsil, liv-52).

GIJJALARNI DORI VOSITALARI YORDAMIDA DAVOLASH

Davolashning ikkinchi bosqichida antiparazitar preparatlar buyuriladi. Ularning tanlovi lyambliozning klinik tasviri, bemorning ayrim dori-darmonlarga tolerantligi, preparatning har bir bemor uchun individual nojo'ya ta'sirlari va qarshi ko'ratmalariga bog'liq.

Gijjani davolash uchun dorilar uch guruhga ajratiladi:

- **Nitromidazollar** — metronidazol, ornidazol, tinidazol.
- **Nitrofuranelar** — furazolidon, nifuratel, makmiror, enterofuril.

- **Benzimidazollar** — albendazol, nemozol.

Furozolidon va metronidazol kabi preparatlar ularning yuqori toksikligi va bakteriyalarning chidamliligi tufayli tibbiy arsenaldan tobora yo'qolib bormoqda. Ular o'rniga MakMiror, Ornidazol va Albendazol kabi zamonaviy dori-darmonlar kirib kelmoqda. Ularni qabul qilish kamdan-kam hollarda salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek ular samaraliroq va kamroq zaharli sanaladi.

Kattalarda gijjalarga qarshi ushbu dorilar bilan birgalikda Enterol qabul qilish yaxshi samara beradi, uning ijobiy ta'siri ayrim patogen bakteriyalarga qarshi antagonistik xususiyatlarga ega ekanligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, preparat antitoksik ta'sir ko'rsatadi, foydali mikroflorani me'yorga keltiradi va ichakning fermentativ funksiyasini oshiradi.

Davolanish davomiyligi 3 kundan 2 haftagacha bo'lishi mumkin. Antiparazitar terapiya kursi davomida fermentlar, sorbentlar va antigistaminlar qabul qilish davom etiladi.

Gijjalarni davolashning eng keng tarqalgan usuli — bir haftalik tanaffus bilan ikki kursli terapiya hisoblanadi. Bunda ikkinchi kurs uchun birinchi kursda tanlangan dori-darmonlardan farq qiluvchi preparatlar tanlanadi. Bunday yondashuv terapiya samaradorligini oshiradi va eng yaxshi natijalarni beradi.

QAYTA TIKLANISH DAVRI

Gijjalarning organizmda faol parazitlik qilishi nafaqat organizmning metabolik jarayonlarini, balki ozuqa moddalarining muvozanatini ham buzadi. Kasallikni davolash kuchli antimikrob preparatlardan foydalanish bilan kechishi tufayli, u patogenlar bilan birga foydali mikroflorani ham nobud qiladi.

Lyamblioz terapiyasining yakuniy bosqichi bir nechta yo'nalishga ega:

- Foydali moddalar tanqisligini to'ldirish.
- Organizmning himoya funksiyalarini mustahkamlash.
- Ovqat hazm qilish funksiyalarini tiklash.
- Ichakning foydali mikroflorasini me'yorga keltirish.

Ushbu bosqichda ham belgilangan sorbentlar, antigistaminlar va fermentlarni qabul qilish davom etiladi. Ehtiyotkor parhezga davolanish paytida ham, undan keyin ham amal qilinadi. Foydali moddalar tanqisligini to'ldirish uchun kompleks preparatlar buyurilishi mumkin.

Tananing himoya funksiyalarini mustahkamlash va retsidivlarni oldini olish uchun bemorga immunostimulyatorlar buyuriladi:

- Polioksidoniy.
- Likopid.

Ovqat hazm qilish funksiyasini tiklashga ovqatlanish vaqtida ferment preparatlar — Pankreatin, Festal, Enzistal qabul qilish yordam beradi. Preparat dozasi individual ravishda tanlanadi.

Ichak mikroflorasi probiotiklar (Lineks, Bifibumbakterin, Atsepol) va prebiotiklar (Laktrofiltrum, Prelaks, Laktusan) qabul qilish vaqtida me'yorlashadi.

GIJJAGA QARSHI ENG SAMARALI DORILAR TAVSIFI

Lyambliozni davolash uchun ishlatiladigan preparatlar har biri o'ziga xos faol moddaga asoslangan uchta guruhga bo'linadi. Ular kasallikning klinik ko'rinishi va bemorning faol moddaga individual tolerantligidan kelib chiqib tayinlanadi.

Mamlakatimizda 60 ga yaqin gijja turlari keng tarqalgan va ularning har biri uchun tegishli dorilarni tanlash kerak. Odatda shifokorlar gelmintlarning turiga qarab 10 turdagi dori va ularning analoglarini qo'llashadi. Ushbu dorilar bemorning tanasiga yengil detoksikatsiya qilish xususiyatiga ega.

Asosiy adabiyotlar

1. M.N.Maxsumov, M.M.Malikov "Farmakologiya". Toshkent., 2006y.
2. M.N.Maxsumov, X.X.Xolmatov "Fitoterapiya farmakologiya asoslari bilan birga". Toshkent., 2003y.
3. B.A.Samura, L.T.Malaya "Fitoterapiya v klinike vnutrennix bolezney". Xarkov. 2003.
4. M.D.Mashkovskiy "Lekarstvennyye sredstva" (1–2 tom). Moskva. 2004y.

Internet saytlari:

1. <http://www.>
2. ziyonet.uz/http://www.
3. [lex.uz/ httpwww.google.com/](http://lex.uz/httpwww.google.com/)